

## MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISH ISHTIROKCHILARINING TARKIBI, HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**G'oibov Jurabek Chorievich**

*Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi  
direktori podpolkovnik  
yuf (phD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, uning bugungi kundagi rivoji hamda sudlarning professional yondashuvi, rivojlangan mamlakatlar ma'muriy sud ish yuritish sohasini tartibga soluvchi huquqiy asoslarga oid masalalar yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizning ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchiligining ahamiyatiga to'xtanilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ma'muriy sud ish yurituvchi, taraflar, arizachi, javobgar, muammo, huquqiy yechimlar, qonunchilikni takomillashtirish.*

### KIRISH

Ma'lumki, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish azaldan doimo dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, ma'muriy sud ishlarini yuritishda bir tarafdin hokimiyat vakolatlariga ega subyekt – ma'muriy organlarning ishtirok etishi bu borada o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa, taraflarning huquqiy maqomiga doir yondashuvlarni tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi” belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 40-moddasi sud jarayonida ishtirok etuvchi taraf sifatida arizachi hamda javobgarni belgilaydi. Bunda o'zlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida talab taqdim etayotgan yoki manfaatlarini ko'zlab talab taqdim etilgan fuqarolar va yuridik shaxslar arizachilar hisoblanishsa, ariza (shikoyat) talabi qaratilgan ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari javobgar taraf sifatida tan olinadi. Bunda har ikki taraf ham teng protsessual huquqlardan foydalanishi kafolatlanadi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi sifatida odatda, jismoniy shaxslar ko'rilsada, aslida ushbu tarafda xorijiy va xalqaro tashkilotlar, shuningdek jamoat va diniy tashkilotlar ishtirok etadi. Bundan tashqari, ariza davlat organlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, saylov komissiyalari, shuningdek boshqa davlat organlari bilan ish olib boradigan organlar va tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar tomonidan berilishi ham mumkin. Masalan, chet el fuqarosini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish (MJtK 225-modda).

Javobgar sifatida turli shaxslar, shu jumladan davlat hokimiyati organlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, saylov komissiyalari, shuningdek muayyan ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan organlar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar bo'lishi mumkin. Masalan, notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashilganda ushbu organ javobgar tarzida ishda ishtirok etadi.

### **ASOSIY QISM**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ma'muriy sud ishlarini yuritish ishtirokchilaridir. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar Taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar oz zimmalariga yuklatilgan vakolatlarga kora ishda ishtirok etuvchi shaxslardir.

*Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari;* Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish, rad qilish tog'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) hamda ushbu Kodeksda o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqiga ega. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan protsessual majburiyatlarga ega va ular o'zlariga tegishli barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi kerak. Taraflar Arizachi va javobgar ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi taraflardir. Ozlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida talab taqdim etayotgan yoki manfaatlarini ko'zlab talab taqdim etilgan fuqarolar va yuridik shaxslar arizachilardir.

*Ariza (shikoyat) talabi qaratilgan ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari javobgarlardir.* Taraflar teng protsessual huquqlardan foydalanadi.

*Ishda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etishi;* Talab bir nechta arizachi tomonidan birgalikda yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilishi mumkin. Arizachilar va javobgarlarning har biri boshqa tarafga nisbatan sud protsessida mustaqil qatnashadi. Protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkin. Boshqa javobgarning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda, birinchi instansiya sudi hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar arizachining roziligi bilan o'sha javobgarni ishda ishtirok etish uchun jalb etadi. Agar qonunchilikda ishda boshqa javobgar ishtirokining majburiyiligi nazarda tutilgan bo'lsa, sud o'z tashabbusi bilan shu javobgarni ishda ishtirok etish uchun jalb etadi. Sud arizachining iltimosnomasi bo'yicha ham boshqa javobgarni ishda ishtirok etish uchun jalb etishga haqli. Boshqa javobgarni ishda ishtirok etishga jalb etish haqida yoki jalb etishni rad qilish to'g'risida ajrim chiqariladi. Boshqa javobgar ishda ishtirok etish uchun jalb etilganda ishni ko'rish boshidan boshlanadi. Ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish Sud ariza (shikoyat) bo'yicha javob berishi lozim bo'lmagan shaxsga nisbatan talab taqdim etilganini aniqlasa, hal qiluv qarori qabul

qilinguniga qadar daxldor bo'lmagan javobgarni arizachi roziligi bilan daxldor bo'lgan javobgar bilan almashtirilishiga yo'l qo'yishi mumkin. Agar arizachi javobgarni boshqa shaxs bilan almashtirishga rozi bo'lmasa, sud arizachining roziligi bilan bu shaxsni ikkinchi javobgar sifatida ishga jalb etishi mumkin.

Ishga daxldor bo'lmagan javobgar almashtirilganligi to'g'risida ajrim chiqariladi. Ishga daxldor bo'lmagan javobgar almashtirilganidan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

*Protsessual huquqiy vorislik;* Taraflardan biri nizoli yoki sud hujjati bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan chiqib ketgan holda (yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, fuqaroning vafot etishi va majburiyatlardagi shaxslar o'zgarishining boshqa hollarida) sud bu tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtiradi. Huquqiy vorislik ma'muriy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to'g'risida ajrim chiqariladi. Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Taraf huquqiy voris bilan almashtirilganidan keyin ma'muriy sud ishlarini yuritish almashtirish amalga oshirilgan bosqichning o'zida davom ettiriladi. Huquqiy voris ishga kirishguniga qadar sud protsessida amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rni bo'shatib bergan shaxsqa qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy voris uchun ham shu darajada majburiydir.

*Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar* birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Ular arizachining barcha huquqlaridan foydalanadilar va uning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar, agar ish ushbu shaxslarning taraflardan biriga nisbatan huquqlari yoki majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, arizachi yoxud javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular tarafning iltimosnomasi bilan yoki sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar tarafning protsessual huquqlaridan foydalanadi va uning protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan arz qilingan talabning asosini yoki predmetini o'zgartirish, talabdan voz kechish, arz qilingan talabni tan olish, sud hujjatining majburiy ijro etilishini talab qilish huquqi mustasno.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxsni ishda ishtirok etishga jalb qilish haqida yoki uni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi. Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi. Ishda prokurorning ishtiroki Prokuror barcha ishlar bo'yicha sud majlisida ishtirok etishga haqli. Prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Ariza tumanlararo ma'muriy sudlarga Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki

ularning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlariga esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o‘rinbosarlari tomonidan taqdim etiladi.

Ozbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning orinbosari Ozbekiston Respublikasining barcha ma‘muriy sudlariga ariza taqdim etishga haqli. Prokurorning o‘z arizasidan voz kechishi arizachini ishni mazmunan ko‘rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi. Prokuror tomonidan arizachining huquqini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan talabdan arizachining voz kechishi arizani ko‘rmasdan qoldirishga olib keladi. Qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, shuningdek prokurorning arizasi asosida qo‘zg‘atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning mazmuni bo‘yicha fikrini bayon qiladi, bundan uning boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga doir arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishlar mustasno. Fuqaroning, yuridik shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini ko‘zlab ariza taqdim etgan prokuror arizachining huquqlaridan foydalanadi hamda uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

*Ishda davlat organlari va boshqa shaxslarning ishtiroki:* Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, davlat organlari va boshqa shaxslar fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza berishi mumkin. Ariza bergan mazkur organlar va shaxslar arizachining barcha huquqlaridan foydalanadi hamda uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi. Davlat organi va boshqa shaxsning o‘zi bergan arizadan voz kechishi arizachini ishni mazmunan korib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi. Davlat organi va boshqa shaxs tomonidan arizachining huquqlarini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan talabdan arizachining voz kechishi arizani ko‘rmasdan qoldirishga olib keladi.

*Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar.* Ma‘muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar — guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ishtirok etishi mumkin. Sud majlisining kotibi Sud majlisi vaqtida sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sud majlisining kotibi vazifalarini bajaradi. Sud majlisining kotibi ma‘muriy ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud muhokamasining vaqti va joyi haqida xabardor qiladi hamda ularning sudga kelgan-kelmaganligini tekshiradi, kelmaganligi sabablarini aniqlashtiradi va bu haqda sudyaga ma‘lum qiladi, bajarilayotgan protsessual harakatlar bo‘yicha bayonnoma yuritadi, sudyaning sud majlisiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, shuningdek sud hujjatini ijroga yuborish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa topshiriqlarini bajaradi.

*Guvoh:* Ishga doir biror-bir holatdan xabardor har qanday shaxs guvoh bo‘lishi mumkin. Quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so‘roq qilinishi mumkin emas: fuqarolik, iqtisodiy, ma‘muriy ish bo‘yicha vakillar yoki jinoyat ishi boyicha himoyachilar, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish boyicha advokatlar — vakil, himoyachi yoki advokat vazifalarini bajarishi munosabati bilan o‘zlariga ma‘lum bo‘lib qolgan holatlar to‘g‘risida; jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to‘g‘ri idrok qilishga yoki ular haqida to‘g‘ri ko‘rsatmalar berishga layoqatsiz shaxslar.

*Guvohning huquq va majburiyatlari:* Guvoh advokatning yuridik yordamidan foydalanish, ma'muriy sud ishi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa, o'z ona tilida ko'rsatmalar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish, ko'rsatmalarini o'z qo'li bilan yozib berish, ko'rsatmalar berishda yozma qaydlar va hujjatlardan foydalanish huquqiga ega. Guvoh sudning chaqiruviga binoan kelishi, ish yuzasidan o'zi xabardor bo'lgan ma'lumotlar va holatlar haqida to'g'ri ko'rsatmalar berishi, sudya va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning savollariga javob berishi, sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart. Guvoh bila turib yolg'on ko'rsatmalar berganlik uchun jinoiy javobgar bo'ladi, sud tomonidan bu haqda ogohlantirilib, tilxat olinadi. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Qonunga muvofiq kasbiy burchini bajarishi jarayonida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlar va holatlar yuzasidan ko'rsatma berishni rad qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ko'rsatma berish majburiyati tadbiiq etilmaydi.

*Ekspert:* Xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida zarur maxsus bilimlarga ega jismoniy shaxs ekspert sifatida tayinlanishi mumkin. Davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxonalar, muassasa, tashkilot xodimi yoki o'zga jismoniy shaxs ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ekspert sifatida jalb etilishi mumkin emas.

*Ekspertning huquq va majburiyatlari.* Ekspert: ekspertiza predmetiga taalluqli ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish; joyida ko'zdan kechirishda ishtirok etish va ekspertizani o'tkazish uchun zarur qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish; sud muhokamasida ekspertiza predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va guvohlarga sudning ruxsati bilan savollar berish; ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish; o'z xulosasida nafaqat o'z oldiga qoyilgan savollar bo'yicha, balki ekspertiza predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham xulosalarini bayon etish; o'z xulosasi yoki ko'rsatmalari ishda ishtirok etuvchi shaxslar va guvohlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish; agar u ma'muriy sud ishi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatmalar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish; agar ishni yuritayotgan sudning hal qiluv qarorlari, sudyaning harakatlari (harakatsizligi) ekspertning huquq va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

Ekspert: ushbu Kodeksning 21 va 22-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, o'zini o'zi rad etishi haqida darhol arz qilishi; o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona yozma xulosa berishi; sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun sudning chaqiruviga binoan kelishi; o'zi o'tkazgan ekspertiza xususida ko'rsatmalar berishi va o'zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo'shimcha savollarga javob berishi; ekspertiza o'tkazilishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni

oshkor qilmasligi; taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarining but saqlanishini ta'minlashi; sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart. Agar ekspert qoyilgan savollarni o'zining maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni toldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qoyilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yoqligi to'g'risida asoslantirilgan dalolatnoma tuzadi hamda uni ekspertizani tayinlagan sudga yuboradi.

*Mutaxassis.* Maslahatlar (tushuntirishlar) berish va ilmiy-texnika vositalarini qo'llashda yordam ko'rsatish yoli bilan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda ko'maklashish maqsadida fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor bo'lmagan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb qilinishi mumkin. Mutaxassisni sud majlisida ishtirok etish uchun jalb qilish to'g'risida ajrim chiqariladi. Sudning mutaxassisni chaqirish haqidagi talabi uning ish beruvchisi uchun majburiydir. Sud mutaxassisni tarafning iltimosnomasiga ko'ra ham jalb etishga haqli. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan aniq shaxsni mutaxassis sifatida jalb etish to'g'risida sudga iltimosnoma berishi mumkin.

*Mutaxassisning huquq va majburiyatlari.* Mutaxassis sifatida chaqirilgan shaxs: qanday maqsadda chaqirilganligini bilish; agar tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishni rad qilish; sudning ruxsati bilan protsessual harakat ishtirokchilariga savollar berish; protsessual harakat ishtirokchilarining e'tiborini o'zining dalillarni toplash, tekshirish va baholashda, ilmiy-texnika vositalarini qo'llashda, ekspertiza tayinlash uchun materiallar tayyorlashda ko'maklashish chog'idagi harakatlari bilan bog'liq holatlarga qaratish; o'zi ishtirok etgan protsessual harakat bayonnomasi, shuningdek sud majlisi bayonnomasining tegishli qismi bilan tanishish va uning ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning kechishi hamda natijalari qayd qilinishining to'liqligi va to'g'riligi xususida bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arzlari va fikrlarni bildirish; agar ish yuritishda ishtirok etish uning xizmat vazifalari doirasiga kirmasa, protsessual harakatlarni amalga oshirishdagi ishtiroki bilan bog'liq xarajatlarning o'rni qoplanishi va bajargan ishi uchun pul mukofoti olish huquqiga ega. Mutaxassis sifatida jalb etilgan shaxs: sudning chaqiruvi bo'yicha kelishi; protsessual harakatlarni amalga oshirishda va sud muhokamasida maxsus bilim, ko'nikmalardan va ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishi; maslahatlar berishi va o'zi bajarayotgan harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berishi shart. Agar mutaxassis sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqiruvi bo'yicha kelmasa, shuningdek maslahatlar (tushuntirishlar) berishni asossiz ravishda rad etsa, unga nisbatan ushbu Kodeksda belgilangan tartibda jarima solinishi mumkin. Jarima solinishi mutaxassisni kelish va maslahatlar (tushuntirishlar) berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

*Tarjimon.* Tarjima qilish uchun zarur tillarni biladigan hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan tayinlangan shaxs tarjimondir. Ma'muriy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari, garchi tarjima qilish uchun zarur tillarni bilsa ham, tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqli emas. Tarjimon: tarjimani aniqlashtirish

uchun sud majlisi ishtirokchilariga savollar berish; agar tarjima qilish uchun tegishli bilimga ega bo'lmasa, sud muhokamasida ishtirok etishni rad qilish; sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish; tarjima yozuvlarining yozilishi to'g'riligi xususida e'tirozlar taqdim etish huquqiga ega. Tarjimon sudning chaqiruvi boyicha kelishi; tarjimani aniq, toliq va to'g'ri amalga oshirishi; sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart. Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun jinoiy javobgar bo'ladi, sud tomonidan bu haqda ogohlantirilib, undan tilxat olinadi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yurtimizda oxirgi yillarda ommaviy-huquq sohasida olib borilgan keng ko'lamlı huquqiy islohotlar, jumladan ma'muriy tartib-taomillarning belgilanishi, alohida ma'muriy sud tizimining joriy qilinishi, fuqarolarimizning davlat boshqaruvi organlari bilan bir darcha tamoyili orqali munosabatga kirishishi tom ma'noda vatanimiz ravnaqiga hamda iqtisodiy farovonligimiz oshishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES):**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2018 й., 02/18/МПК/0627-сон.
3. Соловьёв А.А. Общая характеристика правового положения сторон административного судопроизводства // Административное право и практика администрирования. 2018. №1. С. 33-43.
4. Козырин А.Н. Административное право зарубежных стран. М.: Спартак, 1996. 229 с. 50-б.
5. Силайчев М.В. Федеральный закон «Об административных процедурах» - предмет правового регулирования // Актуальные проблемы российского права. 2007. №2. С. 65-71. 67-б.
6. Силайчев М.В. Федеральный закон «Об административных процедурах» - предмет правового регулирования // Актуальные проблемы российского права. 2007. №2. С. 65-71. 68-б.
7. Чатурведи А.А., Капустин С.А. Административная процедура в США и ее правовое значение // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2011. №9. С. 192-199. 193-б.
8. Конституция Соединенных Штатов Америки 1787 г. // Соединенные Штаты Америки. Конституция и законодательные акты: пер. с англ. / сост.: В.И. Лафитский, под ред. и со вступ. ст. О. А. Жидков. М.: Прогресс-Универс, 1993.

9. Аврутин Ю.Е. Поможет ли административное судопроизводство обеспечить эффективность государственного управления? // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2015. № 2. С. 40-50. 47-б.

10. Орлов А.В. Активная роль суда в административном судопроизводстве // Российский судья. 2016. № 8. С. 12-15. 14-б.

11. Бондаренко А.В. Стандарти права на доступ до суду та справедливого судового розгляду в адміністративному судочинстві. // Науково-інформаційний вісник Івано-Франківського університету права ISSN 2618-0308 (Online) імені Короля Данила Галицького: Журнал. Серія Право. Вип. 15(27), Т. 2, 2023. 81-86-б.

12. Зверева Т.В. Особенности осуществления административного судопроизводства в России и зарубежных странах // Современные научные исследования и инновации. 2019. № 3 [Электронный ресурс]. URL: <http://web.snauka.ru/issues/2019/03/88912> (дата обращения: 22.03.2021).

13. Слепченко В.А. Некоторые аспекты административной юстиции в зарубежных странах и в России // Вопросы российской юстиции. 2020. № 5. С. 250-261. 256-б.

14. Слепченко В.А. Некоторые аспекты административной юстиции в зарубежных странах и в России // Вопросы российской юстиции. 2020. № 5. С. 250-261. 257-б.

15. Дадашев Р.С. Административное судопроизводство в Европе. Административные суды: становление института // Молодой ученый. 2020. № 22 (312). С. 238-242.